

TOSHKENT VILOYATI NIKOH TO‘YI UDUMLARI VA TO‘Y QO‘SHIQLARINING O‘ZIGA XOS JIHATLARI

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i02.026>

Sunnatillayev Asatillo Sunnatovich

assunnatillayev92@bk.ru

<https://orcid.org/0009-0008-2437-8573>

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya: Toshkent viloyati nikoh to‘yi udumlari va to‘y qo‘shiqlarini ilmiy tadqiq etish uning etnomilliy psixologiyasi hamda hududiy o‘ziga xos madaniyatini yaqindan o‘rganishga yordam beradi. Xalq qarashlarining badiiy tadrijida Toshkent viloyati urf-odat, marosim va to‘y qo‘shiqlarining boshqa hudulardan farqli jihatlari, tarixiy asoslari, g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari shuningdek, transformatsion o‘zgarishlarni ilmiy nuqtai nazardan tahlil etish asosida muayyan xulosalarga kelish folklorshunoslik sohasining tadqiq etilishi zarur bo‘lgan dolzarb masalalari jumlasidandir. Ushbu maqolada Toshkent viloyati nikoh to‘yi urf odatlari va to‘y qo‘shiqlarining o‘ziga xos xususiyatlari ilmiy tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: marosim folklori, to‘y qo‘shiqlari, folklor, nikoh to‘yi, xalq, an‘ana, urf-odat, qo‘shiq

FEATURES OF WEDDING CUSTOMS AND WEDDING SONGS OF TASHKENT REGION

Sunnatillayev Asatillo Sunnatovich

assunnatillayev92@bk.ru

<https://orcid.org/0009-0008-2437-8573>

Research Institute of Cultural Studies and Intangible Cultural Heritage

Abstract: A scholarly study of wedding customs and wedding songs in the Tashkent region contributes to a closer understanding of its ethno-national psychology and regional distinct culture. In the artistic evolution of folk beliefs, the distinctive features, historical foundations, and ideological and artistic features of ritual, ceremonial, and wedding songs of the Tashkent region from other regions, as well as the arrival of certain conclusions based on the scientific analysis of transformational changes, are among the pressing issues requiring research in the field of folklore studies. In this article, the wedding customs and features of wedding songs in the Tashkent region are scientifically analyzed.

Keywords: ritual folklore, wedding songs, folklore, wedding, people, tradition, spirituality, song

Ajdodlarimizning rasm-rusumlari, dunyoqarashi, ishonch-e'tiqodlari, turmush-tarzi va hayot haqidagi falsafiy qarashlari, asrlar bo'y i jamlangan hayotiy tajribalari va turmush ko'nikmalarini o'zida mujassamlashtirgan eng jozibali marosimlarimizdan biri ikki yoshni birlashtiruvchi - nikoh to'yidir. Bundan maqsad nikohni jamoatchilikka ma'lum qilish va ota-ona, qarindosh-urug'larlarning jamoa bilan baham ko'rishidir. Nikoh to'y i tizimida bir qancha marosimlar mavjud: uy ko'rar (qiz ko'rar), sovchilik, sep taxlar, to'qqiz berish (to'qqiz tavoq), qiz oshi (qizlar majlisi), kelin tushirish, baqon tutish, yuz ochdi, kelin salom, chorlar kabi marosimlar va ular bilan bog'liq rasm-rusumlar. Ular hozirgacha saqlanib, amal qilinib kelinadi¹.

Toshkent viloyatining Bo'stonliq tumanida "Kuyov o'tirs in" marosimi o'tkazilgan. Nikoh to'y i kuni kelinning uyiga kuyov hamda uning jo'ralari karnaysurnay sadolari ostida kirib kelishgan. Kelinning uyida kuyov va uning jo'ralari uchun chimildiqli xona tayyorlangan. Kuyov xonaga kirganidan so'ng, kuyov uchun atalgan maxsus yetti yoki to'qqiz qavat ko'rpachalar to'shalgan. Azal-azaldan chimildiq ichidagi kuyovga atalgan ko'rpachalar soniga qarab kuyovni kelinning uyidagi hurmati izohlangan. Agarda ko'rpachalar soni yetti yoki to'qqiz qavat bo'lmasa, kuyovni obro'si va hurmati yo'q ekan, deb izohlangan. Yetti hamda to'qqiz soni qadimdan ilohiy hususiyaga ega. Agar ko'rpachalar soni kam bo'lsa, kuyov joyiga o'tirmagan. Kuyov jo'ralar "Kuyov o'tirmayapti", deb baqirib turaverishgan. To ko'rpalar soni ko'payib hurmati joyiga qo'yilmaguncha kuyov o'z joyiga o'tirmagan.

Ushbu urf-odatdan so'ng kuyov va uning jo'ralariga atalgan maxsus taomlar tortiladi. Birinchi bo'lib chuchvara taomi tortiladi. Chuchvara taomini tortilishidan maqsad, kuyov dirkidek baquvvat bo'ls in deyilgan. Kelinning yangalari tomonidan chuchvara tugilyotganda birdona chuchvaraning ichiga bodom mag'zi solib tugilgan. Chuchvaraga bodom mag'zini solinishidan maqsad, bodom azaldan juftlik ramzini bildirgan hamda yigitning baxti ochiqligidan va omadli ekanligidan dalolat bergan. Kuyov va uning jo'ralari xonaga kirishgandan so'ng, kelinning yangalari kuyovning oyoq kiyimini o'g'irlashgan. Buni payqagan kuyov jo'ralar yangalar bilan aytishuv qilib kuyovning oyoq kiyimini sotib olganlar. Shundan so'ng kuyov kelinning qulog'iga, belgili bo'ldi deb sirg'a taqqan. Bir-birlariga shiri suv ichirishgan².

Toshkent viloyatining Ohangaron tumanida yangalar kelinni chimildiqqa olib kirganlarida, kuyov yanga "kelinimiz qo'yday yuvvosh bo'ls in", deb kelinning tagiga qo'yni jungidan tayyorlangan po'stak solganlar. Chimildiq ichiga "kelin bilan kuyov bir biridan sovib ketmasin" degan niyatda sovuq suv olib kirilmagan.

¹ O'zbek tilining izohli lug'ati. Ikki tomlik. T.1. – M.: Rus tili, 1981. – B.502.

² Axmedova O. O'zbek marosim-udumlarining etnohududiy xususiyatlari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2021. B. 82.

Toshkent viloyatining Olmaliq tumanida kuyov to‘ydan keyin kelin tomonga ko‘rinmagan, jo‘ralari bilan ketgan. Ertasi kuni kechqurun chimildiqqa kirgan. Kuyov chimildiqqa kirishidan oldin onasi uni ismini aytib chaqirgan. Kuyov onasi chaqirishi bilan ortiga burilib boradi hamda o‘z ro‘molchasini onasiga pul bilan qo‘shib beradi, shundan so‘ng kelin oldiga kiradi. Bu irim orqali “kuyovning mehri o‘z onasida qolsin, onasi chaqirganda doim labbay deb tursin”, degan xalq qarshlari mujassam ekan.

Chimildiqqa kelin kuyovni kirgazishdan oldin kayvoniylar tomonidan “joy soldi” udumi o‘tkazilgan. Yaxshi niyatlar bilan kampirlar joy solgan. Keles, Yangiyo‘l tumanlarida ko‘rpalar qatiga “hayoti shirin bo‘lsin”, deb shirinlik solingan. Shundan so‘ng o‘zidan tinib tinchigan, uvali-juvali, birnikohli kampirlardan biri to‘shak ustida birinchi bo‘lib dumalab bergan. Bu udum orqali kampirning baxtli hayoti yoshlarga o‘tsin degan qarashlar mujassam bo‘lgan. Shundan so‘ng “tug‘di-tug‘di” udumini qilishgan. Buning uchun ikkinchi kampir to‘shakka yotib ingalaydi. Yangalardan biri “tug‘di, tug‘di”, deydi. Ikkinchi yanga “voy nima tug‘di”, deydi. Kampir “kelinimiz o‘g‘il tug‘di, suyunchi beringlar”, deydi. Yanga “tug‘di-tug‘di”, deb yugirib tashqariga uy egalar oldiga chiqadi. Qaynona suyunchilab chiqqan yangaga sovg‘a-salom beradi. Bu vaqt mobaynida kampirlar yaxshi niyat bilan “chimildiqda ham chaqaloqlarni ovozi eshitilsin”, deb o‘zlari ingalab turadilar.

Shundan so‘ng kelin kuyov chimildiqqa olib kirilgan hamda “soch silatar”, “oyna ko‘rsatar” udumlari o‘tkazilgan.

O‘zbeklarning oyna bilan bog‘liq e‘tiqodiy qarashlari, shuningdeq «oyna» obrazining xalq og‘zaki ijodi va mumtoz adabiyotdagi badiiy talqini masalalari B.Sarimsoqov tomonidan tahlil qilingan.³

Oynaning magik xususiyatga egaligi haqidagi tasavvurlarning etnografik mohiyatini arxeologik topilmalar asosida o‘rgangan B.A.Litvinskiy va Yu.Muhiddinovlar “oyna” bilan aloqador magik-mifologik qarashlarning tarixiy asoslari O‘rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi e‘tiqodiy ishonchlariga bog‘lanishini aniqlaganlar.⁴ O‘rta Osiyo xalqlarining an‘anaviy san‘atida aks etgan obrazlar va syujetlarni qiyosiy tadqid etgan L.I.Rempel qo‘lida ko‘zgu ushlagan ayol haykalchalari magik ashyo vazifasida qo‘llanilganini qayd qiladi.⁵ Zero, oyna bilan bog‘liq e‘tiqodiy qarashlar qadim zamonlarda shakllangan bo‘lib, uning o‘zbek marosimi folklorida saqlanib qolgan eng yorqin ifodasi nikoh to‘yi tizimidagi “oyna ko‘rsatar” udumidir.

³ Sarimsoqov B. Oynada zuhur etgan baxt // O‘zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1984. – 4-son. – B. 30-35.

⁴ Литвинский Б.А. Зеркало в верованиях древних ферганцев // Советская этнография. – М., 1964.- №3; Мухиддинов Ю. Статуэтки женского божества с зеркалом из Саксонохуро // Советская этнография, – М., 1973. – №5. – С.99-107.

⁵ Ремпель Л.И. Цепь времен. Вековые образы и бродячие сюжеты в традиционном искусстве Средней Азии. – Ташкент: Литература и искусства, 1987. – С.93.

Etnografik va folkloristik manbalarning guvohlik berishicha, “oyna ko‘rsatar” udumi nikoh to‘yining tarkibidagi barqaror uzvlardan biri hisoblanadi.⁶

Ma‘lumki, oyna inson hayotida muhim o‘rin tutadi. U ayollarning oddiy pardozi buyumigina bo‘lmasdan, turli-tuman marosimlarda ham keng qo‘llaniladi. Xususan, “beshik to‘yi” marosimida chaqaloq yostig‘ining tagiga pichoq, tosh bilan birga oyna ham qo‘yilishi bolani ziyon-zahmatdan himoya qilishga qaratilgan magik chora bo‘lsa, nikoh to‘yida kelin-kuyovga oyna ko‘rsatilishi esa ularga baxtli hayot, qo‘shaqarishlikni tilash, umr yo‘li ko‘zguday musaffo bo‘lishiga ezgu istak bildirish ifodasidir.

O‘zbeklarning nikoh to‘yi marosimi tizimidagi an‘anaviy uzvlardan biri sifatida o‘tkaziladigan “oyna ko‘rsatar” udumi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Iso Ernazar o‘g‘li tomonidan 1926-1927 yillarda Samarqand viloyati bo‘yicha to‘plangan etnografik materiallarga ko‘ra, “eru xotin ikkovining orasi oynaday yorug‘ bo‘lsin” deb oyna ko‘rsatilgan.⁷

Qashqadaryo viloyati qishloqlarida “oyna ko‘rsatar” udumi “oyoq bosdi”, “soch siypatar”, “chiroq aylantirar”dan keyin bajariladi. Etnograf olimi G.Toshevaning yozishicha, yangalar kelinning qo‘ynidagi oynani olishib, kelin va kuyovni yonmayon, ya‘ni juft qilib qo‘yib, oyna ko‘rsatishgan. Bunda kelin bilan kuyov oynaga to‘g‘ri qarashlari lozim bo‘lgan. Chunki ular oynaga egri qarashsa, tug‘ilajak farzandining ko‘zi qiyshiq bo‘ladi deb irim qilingan.⁸

L.Xudoyqulovning yozishicha, Surxondaryo viloyatining Qumqo‘rg‘on tumanida kuyov tomonidan kelinnikiga sarpo jo‘natilganda kelin hamda uning dugonalariga atalgan sovg‘a-salomlar, turli-tuman kiyimlik mato, ro‘mol va taqinchoqlar qatori, albatta, yaxshi niyat bilan oyna ham qo‘shib jo‘natilgan. To‘y kuni kuyov xonadonining hovlisiga ham katta oyna osib qo‘yilgan. To‘yga bosh-qosh bo‘lib turgan kayvonilardan uch-to‘rttasi osilgan oyna oldiga kelib: “Ilohim, kelin-kuyovning umri oynaday ravshan bo‘lsin, umrlari uzun, rizqlari farovon bo‘lsin, bolalari polvon bo‘lsin”, - deb navbati bilan ko‘zguga qaraganlar. Balog‘atga yetgan bo‘y qizlar “Bizning ham baxtimiz ochilsin, tezda to‘y ko‘rish nasib etsin”, - degan niyatda galma-gal oynaga qaraydilar. Kelin-kuyov chimildiqqa kirishgach, yanga qizning bo‘xchasidan sarpolarga qo‘shib jo‘natilgan oynani oladi va kelin-kuyovni ana shu oynaga qaratadi. “Oyna ko‘rsatish” udumini bajarishda ijro etiladigan aytimlarda kelin bilan kuyovga ezgu tilak bildiriladi⁹.

⁶ Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969; Лобачева Н.П. Свадебный обряд хорезмских узбеков // Краткие сообщения института Этнографии. – М., 1969. – Вып. XXXIX. – С. 43.

⁷ O‘zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor arxivi. Inv. № 9806.

⁸ Tosheva G.S. XX asrda Qashqadaryo vohasi o‘zbeklarining nikoh to‘yi marosimlari: Tarix fanlari nomzodi diss. – Toshkent, 2002. – B. 73.

⁹ Xudoyqulova L. Surxondaryo to‘y marosim qo‘shiqdari: Filologiya fanlari nomz. diss. – Toshkent, 2011. B.129-130.

“Oyna ko‘rsatar” udumida ijro etiladigan she’riy matnlar ham mavjud bo‘lib, ana shunday qo‘shiqlardan birini Surxondaryo viloyatining Boysun tumanidagi Ariq usti mahallasida yashovchi 93 yashar Sharbon buvi usta Kamol qizidan L.Xudoyqulova yozib olgan:

*Oynaga qarang, oynaga,
Suzilib qarang oynaga.
Ikkovi muncha yarashgan,
Cho‘zilib qarang oynaga.
Zulfi gajak zulukday,
Qoshu ko‘zi pilikday,
Kelin oyim chiroyli-ya,
Cho‘zilib qarang oynaga.
Alp qomati chinorday,
Har yelkasi devorday,
Kuyov to‘ra chiroyli-ya,
Cho‘zilib qarang oynaga.
Gapirishi o‘pichday,
Mo‘ylovlari qilichday,
Kuyov to‘ra chiroyli-ya,
Cho‘zilib qarang oynaga.¹⁰*

Oynaga nigoh tashlagan kelin-kuyov ko‘zguda bir-biriga tikilib qaraydilar. “Oyna ko‘rsatar” udumining aytimlari ham o‘ziga xos ijro usuliga ega. Bunday aytimlar ko‘pchilik bo‘lib emas, balki yanga yoki kayvoni tomonidan yakka holda ijro etiladi. “Oyna ko‘rsatar” chog‘ida ijro etiladigan qo‘shiqlar matni ijrochining yoshi, badiiy iqtidori, so‘z qo‘llash mahorati va badiha imkoniyatidan kelib chiqib, rang-barang badiiy shakl kasb etgan. Bu udumda ishlatiladigan oyna, albatta, yangi, ya’ni ishlatilmagan bo‘lishi shart bo‘lganligi tufayli mazkur udumni bajarishda kuyov tarafdin kelinning sepiga solingan oynadan foydalanganlar. Xalq qarashlariga ko‘ra, oynaga kim birinchi bo‘lib qarasa, ko‘zguda o‘sha insonning taqdiri yozilib qolar ekan. Kelin-kuyovni oynaga juft qilib qaratish orqali ularning oynada aks etgan ruhi qo‘shilishiga ishonishgan. Ushbu oyna kelin-kuyovning o‘zlariga berilgan va ular bu ko‘zguni “baxt oynasi” sifatida maxsus tikilgan “oyna xalta”ga solib, uyning to‘riga osib, asrab-avaylaganlar.

Folklorshunos B.Sarimsoqovning yozishicha, “nikoh to‘ylarida kelin-kuyovga oyna ko‘rsatilishi ularga baxtli hayot kechirib, qo‘sha qarishlarini tilash, oilada yaxshi farzandlar topish istagi bilan bog‘liqdir. Qadimgi ajdodlarimiz tasavvuricha,

¹⁰ Xudoyqulova L. Surxondaryo to‘y marosim qo‘shiqlari: Filologiya fanlari nomz. diss. – Toshkent, 2011. B.129-130.

ko'zgudagi inson aksi bu uning shaklidan tushgan nurlarning sinishi va qaytishidan iborat bo'lmay, balki uning ko'zguda ifodalangan ruhidan iboratdir".¹¹

Bizningcha ham, "oina ko'rsatar" udumining tarixiy asoslari oynada inson ruhining aks etishi haqidagi qarashlariga borib taqaladi. Uyda siniq oyna saqlamasliq yosh bolalarni oynaga qaratmasliq tunda ko'zguga qarashning xosiyatsizlik belgisi deb hisoblanishi ham ana shu tasavvurlar bilan bog'liq. Oynada ruh aks etishiga ishongan ajdodlarimiz qazo qilgan odamlarning jasadini siniq oyna bilan qo'shib ko'mganlar.¹² Ayrim joylarda xonadonda biror kishi vafot etsa, darhol oyna to'ntarib qo'yilgan yoki oynaning ustiga biror mato yopilgan.¹³

"Oyna ko'rsatar" udumini o'tkazishdan maqsad ikkala yoshning taqdiri birlashishiga ishonish, ularga ko'zguday ravshan, pokiza baxt tilash hamda to'kin-sochin, farovon umr kechirishlariga bo'lgan istakni ifodalashdir. Shuning uchun ham o'zbek xalq qo'shiqlaridagi "oynaga qarash" detali balog'at va to'yning poetik timsoli ma'nosida qo'llaniladi:

*Sochimni taramayman,
Oynaga qaramayman,
Xotiringni jam qilgin,
Men seni xohlamayman.*¹⁴

Ma'lumki, bo'y yetgan qizlar sochini tarashi, o'ziga oro berishi ularning balog'atga yetganligini anglatadi. Yuqoridagi qo'shiqda ham sochini tarash balog'atni bildirsa, oynaga qarash to'yning poetik ifodasidir.

Demak oyna bilan aloqador udum va marosimlar xalqimizning magik-animistik tasavvurlarini o'zida mujassamlashtirganligi tufayli o'ziga xos tabiatga ega. O'zbek nikoh to'yi marosimi tarkibidagi "oina ko'rsatar" udumi ham shu qadimiy xalq qarashlari asosida shakllangan.

"To'sh qaytarar" udumi kuyov va uning jo'ralari bilan nikoh to'yi kuni kelinning uyiga borgandan so'ng kelinning amma-xolasi yoki yangasi tomonidan o'tkaziladigan udum hisoblanadi. Karnay surnay sadolari ostida kuyov va uning jo'ralari kelinning uyiga kelishadi. Ularni kelinning amma-xolasi va yangasi oq poyandoz solib, kutib oladi.. Shunda so'ng kelinning xolasi: "Qani kuyovjo'ralar naqd ikki kecha-yu ikki kunduz qaynatib pishirgan to'shni olinglar" - deb to'shni ko'rsatadi. Shunda yangasi. "Ey to'xtang, to'shni olib kelgan xolasiga to'sh haqini beringlar - deydi. Shunda xolasi: "Qani yangasi tezroq aylaning". Patnis ko'tarib yanga kuyovjo'ralar tomonga qarab yuradi. Yanganing qo'lidagi patnisga to'sh haqi uchun oyna, sandiqcha, taroq, zirak, kavush, g'ijim ro'mol, surmadon beradi.

¹¹ Sarimsoqov B. Oynada zuhr etgan baxt // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 1984. - 4-son. - B.32.

¹² Литвинский Б.А. Орудия труда и утварь в могильниках западной Ферганы. - М.: Наука, 1978. - С.66.

¹³ Sarimsoqov B. Ko'rsatilgan manba. - B.32.

¹⁴ Oq olma, qizil olma. O'zbek xalq ijodi. Nashrga tayyorlovchi: M.Alaviya. - Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. - B.123.

Toshkent viloyatining barcha tumanlarida ushbu marosim bir qator takrorlamas o'zgachliklar bilan o'tkaziladi. Viloyatning Bekobod, Bo'ka, Piskent tumanlarida kelinning uyiga kuyov navkar kelgandan so'ng kuyovga atalgan to'sh beriladi va shu yerda kuyov va uning jo'ralari ular tomonidan yeyiladi. Ammo Angren shahrida ushbu jarayon boshqacharoq kechadi. Ya'ni kuyovga atalgan to'sh kuyovjo'ralar tomonidan olib ketilib, nikoh to'yi yakunlangandan so'ng kuyovning uyida barcha kuyovjo'ralar yeg'ilishib "Bizlarga ham shunday kunlar nasib qilsin" - deb yaxshi niyatlarda istemol qilinadi.

"To'sh qaytarar" udumi davomida kuyov jo'ralar kuyovga to'n kiydirishgan va kuyovni to'n bilan qutlashgan. Shuningdek, kuyov jo'ralar tomonidan "Qulluq bo'lsin qo'shig'i ijro etilgan.

Uylanim deb unutmang jo'ralarni,

Choyxonayu, yog'li palov to'ralarni,

Endi tepib o'tmang, paqir qo'ralarni.

Naqorat:

Qulluq bo'lsin kuyov bola, qulluq bo'lsin,

Qulluq bo'lsin kuyov bola, qulluq bo'lsin.

G'ozlar uchar Andijonni soylarida,

To'ylar bo'lsin har bo'ydoqning uylarida,

Xizmat qilaylik o'g'lingizni to'ylarida.

Naqorat:

Qulluq bo'lsin kuyov bola, qulluq bo'lsin,

Qulluq bo'lsin kuyov bola, qulluq bo'lsin¹⁵.

O'zbekistonda nikoh to'yi marosimidan keyingi kuyovning xonodonida yaqin qarindoshlar va qo'ni qo'shnilar ishtirokida o'tkazildigan marosim "yuz ochdi" deyiladi. Marosim O'zbekistonning turli mintaqalarida "Yuz ochdi", "Yuz ko'rsatar", "Yuz ko'rsatar", "Bet ochar" yoki "ro'kushon" (tojikcha ro' - yuz, kushon - ochar) kabi nomlar bilan yuritiladi.

"Yuz ochdi" marosimida kelinni yangalari yordamida yuziga oq ro'mol tashlagan holda yig'ilganlar huzuriga olib chiqilgan. Shundan so'ng xonadonning yosh bolasi tomonidan uning yuzidagi ro'mol yoki oq xarir parda o'qlov yoki mevali daraxtning shoxi bilan ochilgan va uzoqroq joyga olib qochilgan. Avvallari kelin yuzi ochgandan so'ng u o'zi to'qigan ro'molchalarni kuyov tomondagi bolalarga tarqatgan. Kelinning yuzini ochishda mevali daraxtning shoxidan foydalaniladi. Bunda mevali daraxtning serpushtlik xususiyati kelinga ham o'tsin, serfarzand bo'lsin, degan niyat mujassamlashgan. Qolaversa, yosh bola tomonidan kelinning yuzini ochilishi ham ushbu udumning bo'lg'usi oila serfarzand bo'lsin degan niyatda amalga oshiriladi. Kelin tomon kuyov tomonga sep beradi.

¹⁵ Dissertantning dala yozuvlari. 2022-yil. Angren shahri.

“Yuz ochdi” marosimida “Supra soldi” odati bajarilgan. Bu odat Respublikaning barcha hududlari bo‘ylab keng tarqalgan. Toshkent viloyatining Yangiyo‘l shahrida yangalar kelinni o‘chog‘ boshiga olib boradilar, kelin o‘chog‘ga uch marta egilib salom beradi. O‘choq boshida qaynona va kelinni “salomlashuv” udumi o‘tkaziladi. Qaynona ro‘molga ikkita non, shirinliklarni tugib “rizqli, beli baquvvat bo‘lsin”, deb kelinining o‘ng qo‘ltig‘iga ilik bilan qisib qo‘yadi. Shundan so‘ng qaynona surpani yozib kelinning qo‘lini “rizqli, nasibali bo‘lgin”, deb unga tiqdirib oladi. Kelin o‘chog‘ga yog‘ tashlaydi hamda shu yerda qaynona keliniga un elatadi¹⁶.

Kelinni kuyovnikiga olib kelish bilan bog‘liq bo‘lgan udumlar, turli tumanlarda har xil nishonlanadi. Ular ma’lum darajada bir-birlaridan farq qiladi.

Biz mavzumizga taaluqli bo‘lgan Toshkent shahriga xos bo‘lgan “Kelin salom” udumini ko‘rib chiqamiz. Nikoh to‘yi udumiga ko‘ra to‘yning ertasi kuni kuyovning barcha yaqin kishilari, qarindosh-urug‘lari, qo‘ni-qo‘shnilar kelinga atab sovg‘alar olib keladilar. Ushbu kun kelinning onasi boshchiligidagi kelin tomon ayollari kuyov uyiga “Yuz ochdi” marosimiga yig‘iladilar. “Kelin salom” marosimi - nikoh to‘yi marosimlaridan hisoblanadi. “Kelin salom” marosimi turkiy va boshqa xalqlarda turli shakllarda uchraydi. Toshkent shahrida nikoh to‘yi bo‘lgan kunning ertasiga, tong chog‘ida kuyov hamda kelin tomondan kelgan qarindosh urug‘lar ishtirokida “Kelin salom” marosimi o‘tkaziladi. Kelinning yangalari va ayol qarindoshlari to‘y kechasi kelin bilan birga kuyovning honadonida qoladi. Quda taraf nikohdan so‘ng kelin tomondan qolgan mehmonlarni alohida ziyofat qilib mehmon qiladilar. Erta tongdansir choy bilan siylangan yangalar kelinni yasantirib “kelin salom” marosimini o‘tkazishga tayyorlanishadi va xonadon egalariga Abelgi berishadi. Shundan so‘ng kelin yanga yoki yoshi ulug‘ kayvoniy ona kelinni yonida duo-qilib “kelin salom”ni boshlaydi. “Kelin salom”ni boshida mana shunday chiroyli kunlarga shukronalik qilib, Allohga va payg‘ambarlarga salom berishdan boshlanadi va keyin xonadon kattalariga, ana undan keyin kelin qaynona-qaynotalariga salom beradi. Kelin ta’zim bilan egilib-egilib salom beradi va ular salomga javoban kelinning boshiga ko‘rmana qo‘yishadi. Dasturxonchi ularga kelin nomidan turli sovg‘alar (kiyimlik mato, ro‘mol, belbog‘ va boshqa sovg‘alar) topshiradi. Toshkent “kelin salom”ining o‘ziga xos xususiyati, ya’ni, boshqa hududlardan ajralib turadigan jihati, “Kelin salom” so‘nggida “Alla bolam” udumi o‘tkaziladi. Bu udum faqatgina Toshkent shahriga xos bo‘lib, unda kelinga kelajakda shirin-shirin farzandlarning onasi bo‘lishi niyat qilib o‘tkaziladi¹⁷.

Bunda kayvoniylar bir yosh bolaning qo‘liga o‘qlov yoki mevali daraxt shoxidan sindirib olingan novdani tutqazadilar. Yosh bola qo‘lidagi o‘qlov bilan yoki novda bilan kelinning boshiga solingan maxsus yopinchiqni ko‘tarib yuzini ochar ekan. Kelinning yuzidagi yopinchig‘ini o‘qlov yoki mevali daraxt novdasi yordamida olib

¹⁶ Axmedova O. O‘zbek marosim-udumlarining etnohududiy xususiyatlari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2021. B. 82.

¹⁷ Axmedova O. O‘zbek marosim-udumlarining etnohududiy xususiyatlari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent, 2021. B. 82.

tashlashning ham o'z ramziy ma'nolari bor. O'qlov rizq-ro'z, qut-baraka timsoli sanaladi. Mevali daraxt novdasi esa, kelin serfarzand bo'lsin degan ma'noni anglatar ekan. Surxon vohasi "Bet ochar" marosimi so'ngida kayvoniylardan biri isiriq qatuz, garmdori solib tutatishar ekan va kelinning atrofidan aylantirib "niyati shifosini bersin, senday kelinning insof-topig'ini bersin", deyilar ekan.

Toshkent viloyati o'zbek nikoh to'yi marosimi mazkur hududda istiqomat qiluvchi aholining etnik tarkibi, tarixiy-madaniy an'analari, turmush tarzi, mehnat xarakteri va urf-odatlarining o'ziga xosligidan kelib chiquvchi muayyan lokal xususiyatlarga egaligi bilan alohida ajralib turadi. Vohada yashovchi aholining nikoh to'yi tarkibidagi bir qator udumlar, masalan, "sovchilik", "non sindirish", "fotiha to'yi", "shohuloq", "kelin salom", "yuz ochdi", "oyna ko'rsatar", "shirin suv ichirar", "soch siypatar" singari udumlar talqinida umumo'zbek folklori uchun mushtarak bo'lgan belgilar ko'zga tashlanadi.

Toshkent vohasi aholisining ijtimoiy va oilaviy sharoitidagi mavjud marosimlarning har birida bir qancha urf-odatlar, irim-sirimlar va rasm-ruslar mujassamlashgan. Marosim va odatlarning ko'pchiligi, xalqimizning asrlar davomida amal qilib kelgan milliy qadriyalaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedova O. O'zbek marosim-udumlarining etnohududiy xususiyatlari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2021. B. 82.
2. Sarimsoqov B. Oynada zuhur etgan baxt // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 1984. - 4-son. - B. 30-35.
3. Литвинский Б.А. Зеркало в верованиях древних ферганцев // Советская этнография. - М., 1964.- №3; Мухиддинов Ю. Статуэтки женского божество с зеркалом из Саксонохуро // Советская этнография, - М., 1973. - №5. - С.99-107.
4. Ремпель Л.И. Цепь времен. Вековые образы и бродячие сюжеты в традиционном искусстве Средней Азии. - Ташкент: Литература и искусства, 1987. - С.93.
5. Снесарев Г.П. Реликты домусульманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. - М.: Наука, 1969; Лобачева Н.П. Свадебный обряд хорезмских узбеков // Краткие сообщения института Этнографии. - М., 1969. - Вып. XXXIX. - С.43.
6. Tosheva G.S. XX asrda Qashqadaryo vohasi o'zbeklarining nikoh to'yi marosimlari: Tarix fanlari nomzodi diss. - Toshkent, 2002. - B. 73.
7. Xudoyqulova L. Surxondaryo to'y marosim qo'shiqlari: Filologiya fanlari nomz. diss. - Toshkent, 2011. B.129-130.
8. Sarimsoqov B. Oynada zuhr etgan baxt // O'zbek tili va adabiyoti. - Toshkent, 1984. - 4-son. - B.32.

9. Литвинский Б.А. Орудия труда и утварь в могильниках западной Ферганы. - М.: Наука, 1978. - С.66.

10. Oq olma, qizil olma. O'zbek xalq ijodi. Nashrga tayyorlovchi: M.Alaviya. - Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. - B.123.